



UDK:811.523

Sarvinov USMANOVA,
O'quv markazi ingliz tili o'qituvchisi
E-mail:sarvinovusmanova7@gmail.com

PhD N.Maxmudova taqrizi asosida

THE DEPICTION OF SOCIAL AND EVERYDAY LIFE IN THE ADRIAN HENRI'S POEMS

Annotation

The article analyzes how the poetry of Adrian Henri, created under the influence of 1960s pop culture, reflects social and everyday realities. It shows how the poet incorporates elements of contemporary life, youth culture, and pop culture into his work. The poems use irony and satire to highlight the contradictions between capitalism, consumerism, and art. Through individual poems included in The Liverpool Poem, Henri criticizes social inequality and the moral decline of society. The article deeply explores the connection between the poet's work and the British society and cultural environment of the 1960s-70s. It emphasizes that Adrian Henri's poetry marked a new stage in modern literature and remains relevant to this day.

Key words: Pop culture, Liverpool poets, city of Liverpool, social and everyday life, social inequality, capitalism, poetic text.

ИЗОБРАЖЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ И ПОВСЕДНЕВНОЙ ЖИЗНИ В ПОЭЗИИ АДРИАНА ГЕНРИ.

Аннотация

Статья анализирует, как в поэзии Адриана Генри, созданной под влиянием поп-культуры 60-х годов, находят отражение социальные и повседневные реалии. Показывается, как поэт использует элементы современной жизни, молодежной и поп-культуры. В стихах с иронией и сатирой освещаются противоречия между капитализмом, потребительством и искусством. В нескольких стихах, входящие в состав «The Liverpool Poem», Генри критикует социальное неравенство и разрушение нравственных ценностей в обществе. Статья глубоко раскрывает связь творчества поэта с британским обществом и культурной средой 1960–70-х годов. Подчеркивается, что поэзия Адриана Генри стала новым этапом в современной литературе и сохраняет актуальность и в наши дни.

Ключевые слова: Поп-культура, поэты Ливерпуля, город Ливерпуль, социальная и повседневная жизнь, социальное неравенство, капитализм, поэтический текст.

ADRIAN HENRI SHE'RLARIDA IJTIMOYIY VA KUNDALIK HAYOT TASVIRI

Annotatsiya

Maqola 60-yillarda urf bo'lgan Pop madaniyati ta'sirida ijod qilgan Adrian Henri she'rlarida ifodalangan ijtimoiy va kundalik hayot tasvirining qanday ifoda topganini tahlil qiladi. Shoirming zamonaviy hayot, yoshlar madaniyati va pop madaniyat unsurlaridan qanday foydalanганиni ko'rsatadi. SHE'rlarda kapitalizm, iste'molchilik va san'at o'rtasidagi ziddiyatlar kinoya va hajv orqali yoritilgan. "The Liverpool Poem" she'ri tarkibidagi bir necha she'rlar orqali Henri jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va axloqiy qadriyatlarining buzilishini tanqid qiladi. Maqola, shoir ijodining 1960-70 yillardagi Britaniya jamiyati va madaniy muhit bilan bog'liqligini chuqur ochib beradi. Adrian Henrining ijodi zamonaviy she'riyatda yangi bosqichni boshlab bergani va bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmaganligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Pop madaniyati, Liverpul shoirlari, Liverpul shahri, ijtimoiy va kundalik hayot, ijtimoiy tengsizlik, kapitalizm, poetik matn.

Kirish. 60-yillarda Amerika va Angliya san'atida pop madaniyatini urfga kirishi, Liverpul shoirlari ijodining gullab yashnashiga, shuningdek o'ziga xos g'oyaviy uslublarini paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Adrian Henri "Liverpool shoirlari" guruhining a'zosi sifatida, asarlarida zamonaviy hayotning muammolari va insonlar orasidagi ijtimoiy aloqalarni ko'rsatishda katta ustalik ko'rsatgan. Adrian Henrining she'riyatidagi ustuvor mavzular ijtimoiy va kundalik hayot tasviri, shahar hayoti, ishchi qatlamining kunlik vaqt o'tkazishlari texnologik asr yangiliklari, shahar hayoti kabi maishiy mavzulardir. Har bir she'ridan Liverpul shahrining hidi ufurib, Mersi daryo ko'rfazida suvning ovozi, she'rxonlik kechalaridagi she'r va musiqa jo'rligi namoyon bo'ladi[4].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. SHE'riyatda ijtimoiy va kundalik hayot mavzulari zamonaviy mavzular qatorida bo'lib, har bir davrning rusumiga qarab o'zgarib boradi. Har bir davr shoirlarining o'sha vaqtdagi tarixiy, ijtimoiy, siyosiy hayotiga ko'ra mavzular xilma xilligiga ko'ra poetik matn

shakllanadi. SHE'r matnidagi har bir so'z o'z badiiy ma'nosiga ega bo'lib, bu ko'pincha she'riy janrda ta'sirliroq va chiroyliroq chiqadi. Har bir shoirming o'z poetik matni va o'zi foydalanadigan mavzu va badiiy obrazlari bor. Individuallikga asoslangan bu qarashlar shoirming mahoratiga uni qanchalik darajada ochib bera olishiga bog'liqdir. Turli avlodga mansub shoirlar ijodi solishtirilganda, usha davrgagina xos bo'lgan bu belgilar uchraydi[2].

Angliya adabiyotida ham 60-yillardagi ijtimoiy hayot, pop madaniyati va Bit avlodining ta'siri natijasida paydo bo'lgan Liverpul shoirlari guruhi mavzular xilma-xilligi, uslubining an'anaviy she'riyatdan o'zgachaligi bilan farq qiladi. A.Y. Lebedev pop madaniyatga shunday ta'rif beradi: "Qotib qolgan madaniyatga qarshi avangardcha qarashlar va amaliyotlarga ega bo'lgan ommaviy adabiyotning xilma-xilligi". (4) Olimning bu fikrlari aynan Liverpul shoirlarini ta'rifi bilan hamohang bo'lib, ularning she'r shakli, matni va uslubidagi inqilobga ishora qiladi. Adrian Henri va uning

maslakdoshlari she'riyatning ma'lum bir she'r tili bo'lmashligi, zamonaviy she'riyat kundalik hayotdagi idiomalar, yigirmanchi asrda oddiy shahar hayotida uchratish mumkin bo'lgan iboralarni aks ettirishi kerak degan g'oyalarni ilgari surishgan[1].

Adrian Henri she'riyatida o'sha davrlarda dolzabr bo'lgan ijtimoiy adolatsizlik va tengsizlikni o'rganish masalasi ko'p uchraydi. U o'zining she'rlarida iqtisodiy va ijtimoiy tabaqalanishni, kam ta'minlangan yoki kamsitilgan odamlarning hayotini ko'rsatishda juda keskin va tanqidiy pozitsiyaga ega bo'lgan. Bunda uning she'rlaridagi asosiy mavzular — jahonning adolatsizligi, shu bilan birga, jamiyatning harakatlar va o'zgarishlarga qarshi munosabatini aks ettiruvchi asarlaridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada adabiy tahlil biografik, madaniy-tarixiy, va kontekstual (kontekstga asoslangan) tahlil metodlaridan samarali foydalanildi. Adrian Henri ijodidagi ijtimoiy va kundalik hayot tasviri, pop madaniyati va yoshlar submadaniyatining ifodalanishi, shuningdek, kapitalizm va iste'molchilikka bo'lgan tanqidiy munosabatlar she'r matnlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida shoirning ayrim muhim she'rlari – xususan, “The Liverpool Poem”, “Prayer from a Painter to All Capitalists”, “Go to Work on a Braque” kabi asarlari matnshunoslik (textual analysis) uslubida tahlil qilinib, ular orqali Henri ijodining ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstdagi o'rni ochib berilgan.

Tahlil va natijalar. A. Henri, Rodker Makgaf va Brayan Pattenlarning Mersi ovozi (The Mersey Sound) antologiyasida jamlangan she'rlar to'plamida, Adrian Henrining “The Liverpool Poem” deb ataladigan she'rda shoir Liverpul shahrining ijtimoiy va iqtisodiy ahvolini, shaharni mehnatkashlar va kam ta'minlanganlar ko'zlari bilan tasvirlaydi. U Liverpul shahrini ishchilarning va oddiy odamlarning hayotini aks ettiruvchi bir joy sifatida ko'rsatadi. Shuningdek, adib she'riyatida zamonaviy hayot va yoshlar madaniyatini o'ziga xos uslubda tasvirlash mavjud bo'lib, ushbu she'rda ham shunga o'xshash motivlar kuzatiladi. She'r 12 ta alohida she'rlardan tashkil topgan bo'lib, shoir har bir bandga alohida allyuziya va o'sha paytlarda mashhur bo'lgan plakatlardagi reklama va tashviqotchilik shiorlari hisoblangan iboralarni qo'llagan. (Masalan, GO TO WORK ON A BRAQUE!) Bundan tashqari tarixiy ismlar (Marsel Prust (Marcel Proust), Uayt (Wyatt), Jeyms (James), Vil va Morgan Earp, Alfred Jarry), zamonasining mashhur komik qahramonlari (Batman) va ko'cha nomlari (Upper Duke Street, Elliot Street) bo'lib, bularning barchasi Liverpul shahri bilan bog'liqdir. Quyidagi tarjima va tahlil bilan ushbu parchani tushunishga harakat qilamiz:

Youth disguised as stockbrokers,
Sitting on the grass eating the Sacred Mushroom.
Ya'ni bunda

Fond birjasi agentlari kabi kiyingan yoshlar,

Muqaddas qo'ziqorin iste'mol qilib, o't ustida o'tirishar

kabi ma'nosiz misralar kelib chiqadi, uni tahlil qilishning ham umuman foydasi bo'lmaydi, ammo o'sha davrlarda mashhur bo'lgan shiorlar, reklamalarda ommalashgan so'zlar, mashur, musiqiy guruhlarni oladigan bo'lsak ma'nosini chiqarsak bo'ladi[6].

She'ning birinchi qatorida “stockbrokers” so'zi ishlatiladi, bu korporativ dunyo va iqtisodiy hayotning rasmiy, an'anaviy qiyofasini tasvirlaydi. Yoshlarning bu tarzda “disguised” bo'lishi, ya'ni “yashirincha qiyofa o'zgartirishlari” ular o'zlarini jamiyatning kutilgan talablariga moslashtirishga urinayotganini ko'rsatishi mumkin. Lekin, ular bu “kiyim” ortida o'zlarining erkin tabiatlarini yashirishmoqda. Yoshlar o't ustida o'tirishgani tabiiylik va erkinlikni ifodalaydi. “Sacred Mushroom” – bu o'sha paytlarda yoshlar orasida mashhur

bo'lgan rok gruppadir, bu bilan allyuziya qo'llab she'rning muhitini to'liq yetkazib berishga harakat qiladi. YA'ni, yoshlar o't ustida o'tirib The Sacred Mushroomsni eshitib o'tirishadi, bundan ko'rinish turibdiki, o'zlarini brokerlarga o'xshatishiga qaramasdan ular haliyam sevimli guruh qo'shiqlarini eshitishadi, ma'sumiyati ketmagan yoshlar ifodalangan. Misralardagi “Stockbrokers” jamiyatdagi rasmiylik va kapitalizmni ifodalasa, “Sacred Mushroom” esa o'sha paytda rusum bo'lgan va yoshlar sevgan guruh, yoshlik ramzi. Ikki tushuncha birgalikda qo'llanganda, ular yoshlarning ikki tomonlama hayotini ko'rsatadi: ular tashqi dunyoda o'zlarini jamiyatga moslashgandek ko'rsatishadi, ammo ichki dunyosida o'zlari uchun erkinlikni izlashmoqda. She'rning ohangi va uslubiga keladigan bo'lsak, oddiy, lekin juda kuchli tasvirlardan foydalangan holda, Adrian Henri bu yerda zamonaviy yoshlarning ichki va tashqi dunyosi o'rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi. Shu bilan birga, she'rda kinoya ohangga ega, chunki “stockbrokers” va “Sacred Mushroom” bir-biriga zid tushunchalar sifatida ishlatiladi. Demak, Adrian Henri Buyuk Britaniyada 1960-70 yillarda o'z sheriylati bilan mashhur bo'lgan va yoshlar madaniyati, ayniqsa kontrmadaniyatning aks ettirilishiga e'tibor qaratgan shoirlardan biridir.(6) Bu she'rni ham o'sha davrning madaniy va psixologik xususiyatlarini tushunib o'qish kerak. Ushbu she'rni tahlil qilishda asosiy e'tibor yoshlarning o'zlikni izlash jarayoniga qaratilgan va bu jarayonning jamiyat meyorlariga zid bo'lgan jihatlariga alohida urg'u berilgan.

Adrian Henrining she'rlarida o'sha davrning mashhur shiorlari, reklama peshtaxtlarida rusum bo'lga so'zlardan foydalanish kabi yo'nalishni ham ko'rsa bo'ladi. Boshqa tomondan, tijorat va siyosiy shiorlarni o'zgartirishga misollar beradi. Reklama shiori “Go to work on an egg” (“Bir tuxum bilan ishga boring”) “Go to work on a Braque” (“Braque bilan ishga boring”) ga o'zgartiriladi, bu esa butun she'rni tashkil etadi. “Egg” (tuxum) so'zining “Braque” (fransuz kubist rassomi Jorj Braque) so'ziga almashtirilishi ikkalasi o'rtasida tenglik belgisini taklif qiladi.(2) Usha paytlarda aholi o'rtasida tuxum yeyishni ommaviy tus oldirish maqsadida ishlab chiqaruvchi tarafdin taqdim etilgan reklama e'loni bo'lib, yoshlar orasida rusum bo'lgan shiorlardan biri edi. Adib esa san'atni ardoqlashini va inson hayoti faoliyati davomida jismoniy ozuqadan tashqari aqliy ozuqa ham muhimligini uqtirmoqchi bo'ladi. O'zining rassomligini hisobga olgan holda, Braque singari rassom ismidan foydalanganini tushunishimiz mumkin. Henrining uslubiga xos ravishda, san'at va uning an'anasi zamonamizga mos ravishda yangi tarzda ko'rib chiqiladi: tijorat nuqtayi nazaridan. San'at oddiy iste'mol mahsulotidan yaxshiroq bo'lishi mumkinligi, Henrining ushbu so'z o'yini ortida yashirincha shunday e'tiqod bor: san'at kundalik narsalar kabi foydali bo'lishi mumkin; san'at va kundalik narsalar bir-birining o'rnini bosishi mumkin. Barcha narsa san'at bo'lishi mumkin, san'at barcha narsani o'rnini bosishi mumkin.

Keyingi qiziq bo'lgan she'r bu:

PRAYER FROM A PAINTER TO ALL CAPITALISTS:

Open your wallets and repeat after me
'aYELP YOURSELF'

Ushbu qisqa va keskin she'r zamonaviy kapitalizm va jamiyatdagi iste'molchilik madaniyatiga tanqidiy yondashadi. She'r oddiy, ammo mazmun jihatidan chuqur bo'lib, buni ifodalashda shoir she'rda kinoya tasviriy vositasini qo'llaydi. PRAYER FROM A PAINTER TO ALL CAPITALISTS: she'rning birinchi misrasi chaqiriqqa o'xshagan hayajonli so'zlar bilan boshlangan. (Rassomning barcha kapitalistlarga iltijosi, nolasi) bu o'sha paytlarda Liverpul shahrida mashhur bo'lgan shiordan foydalangan. Bizga ma'lumki, Adrian Henri

so'z o'yiniga nihoyatda mohir, usta shoir bo'lganligi sababli, she'rlarida turli eksperimentlardan foydalangan. Bu misrada balki PAINTER so'zi o'zgartirilgan bo'lishi mumkin. Buning sababi shoirning o'zi rassom ekanligi va u rassomlar ham xalqning ajralmas bo'lagiligini, uning vakili sifatida kapitalistlarga murojaati deb qabul qilish mumkin.

"Open your wallets and repeat after me" (Hamyonlaringizni ochib, mening ortimdan takrorlang) iborasi kapitalistlarning ochko'zligini va ularning faqat o'z foydasi haqida o'ylashini ochiq-oydin hajv qiladi. "aYELP YOURSELF" iborasi ikki xil ma'noda ishlatilgan. Bir tomondan, bu xizmatdan foydalanish va o'z-o'ziga yordam qilishni anglatadi. Ikkinchi tomondan, o'zingga foyda ol, ya'ni faqat o'z manfaatlarini ko'zga degan kinoya bor. SHE'r qisqa va lo'nda, bo'lib uch misrali she'rdir. Bunda ortiqcha so'zlar yo'q, lekin mazmuni juda boy. Bu minimalistik uslub she'rni zamonaviy va o'qilishini oson qiladi.

"Repeat after me" iborasi diniy marosimlar yoki ibodatlardan ilhomlanib aytilgan. Xristianlikda nikoh marosimida ruhoniy kelin kuyovdan qasam ichishi uchun shu iborani qo'llaydi. Bu yerda kapitalizmni xudolikka ko'tarish darajasida sodiq bo'lish, ulug'lash orqali bu madaniyatni tanqid qiladi. SHE'r o'ta oddiy va tushunarli so'zlar bilan yozilgan, bu uni keng auditoriya uchun qabul qilinadigan qiladi, ammo uni anglash uchun, pop madaniyatini, o'sha payt Liverpul shahrida bo'lgan siyosiy madaniy tarixiy o'zgarishlarni bilish zarur.

"aYELP YOURSELF" shiorida kapitalizmning ikkiyuzlamachiligi va faqat o'z manfaati haqida qayg'urish g'oyasi ifoda etilgan. Bu ko'pincha jamoatchilik manfaati uchun emas, balki shaxsiy foyda uchun harakat qilishni anglatadi. Adrian Henri bu she'rda san'at, jamiyat va iqtisod o'rtasidagi ziddiyatlarni ochib beradi. Kapitalistlarning faqat pulga bo'lgan ishtiyoqi, ijodkorlik va insoniy qadriyatlarni pastga tushiradi. She'r rassomning tilidan yozilgan, bu esa san'at va tijorat o'rtasidagi kuchli qarama-qarshilikni aks ettiradi. Kapitalizm xuddi ibodatga o'xshatilgan, ya'ni insonlar faqat moliyaviy manfaatlarini "muqaddas" deb bilishadi. SHE'r juda qisqa bo'lsa-da, unda global mavzular ko'tarilgan va ifoda vositalari orqali qiziqarli hajviy tanqid shakllangan.

Adrian Henrining ijodiga bag'ishlangan ushbu tahlil zamonaviy she'riyatda o'ziga xos yo'nalishlarni ochib beradi. Shoirning asarlari 1960-70-yillardagi Britaniya jamiyati, pop madaniyati va ijtimoiy o'zgarishlarni o'zida aks ettirgan. Ayniqsa, adibning ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy tabaqalanish va shahar hayotining realistik tasvirlari, yoshlar madaniyatiga oid

asarlari, hamda san'at va tijorat o'rtasidagi ziddiyatlar she'riyatida muhim mavzular sifatida ko'rinadi.

Henri ijtimoiy mavzularga o'ziga xos, kinoyaviy va tanqidiy yondashgan. Uning "Go to work on a Braque" kabi qisqa, ammo mazmunli she'rlari orqali u oddiy hayot va san'at o'rtasidagi muvozanatni aks ettirishga erishgan. Bu yondashuv shoirning san'at va iste'mol madaniyatini bir xil muhimlik darajasida ko'rsatishga urinishidan dalolat beradi. Shoir san'atning oddiy iste'mol mahsulotlari kabi kundalik hayotga ta'sir qiluvchi kuch ekanligini uqtirishga harakat qilgan. Bunday pozitsiya san'atni tijorat mahsuloti sifatida ko'ruvchi zamonaviy jamiyatga qaratilgan nozik tanqididir.

Adrian Henrining she'rlari minimalizm va pop madaniyatining uslublaridan foydalanadi. Bu uslub she'rlarga sodda va o'qilishga qulay shakl beradi, ammo ularda chuqur ma'no va murakkablik mavjud. "Prayer from a Painter to All Capitalists" she'ri qisqa uch satrdan iborat bo'lsa-da, u kapitalizmning mohiyati va iste'molchilik madaniyatiga keskin tanqidiy yondashuvni aks ettiradi. Shoir kapitalizmni xudolikka tenglashtirib, jamiyatning faqat moliyaviy manfaatlariga asoslangan tizimini tanqid qiladi. "Help Yourself" iborasi esa ikki ma'noda ishlatilgan: bu o'ziga yordam ber degan mazmunni anglasa-da, faqat o'z manfaatini o'ylashga qaratilgan kinoyani ham o'z ichiga oladi.

Shoir o'z she'riyatida reklama va shiorlardan samarali foydalanib, o'sha davrning pop madaniyati bilan bevosita bog'langan. Masalan, "Go to work on an egg" reklama shiorini "Go to work on a Braque" shaklida o'zgartirish orqali u san'at va kundalik hayot o'rtasidagi chegaralarni yo'q qiladi. Bunday o'zgartirishlar orqali shoir zamonaviy dunyoning o'ziga xos murakkabliklarini ifoda etadi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, Adrian Henri zamonaviy she'riyatda yangi yo'nalish ochib bergan shoirlardan biri sifatida tanilgan. Uning ijodi pop madaniyat va ijtimoiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, zamonaviy hayotning murakkabliklarini hajviy, kinoyaviy va estetik jihatdan yoritib beradi. Shoir o'z asarlarida sodda iboralar, minimalizm va nozik kinoyadan foydalangan holda chuqur ma'nolarni yetkazishga erishgan. Uning she'riyatini o'qish uchun zamonaviy dunyo, pop madaniyat va shoirning yashagan davridagi siyosiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshi bilish zarur. Adrian Henrining poetik merosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan va turli ijtimoiy mavzularni chuqurroq tushunishga undaydi.

ADABIYOTLAR

1. Henri, A., McGough, R., Patten B., The Mersey Sound. Harmondsworth : Penguin. 1988. She'riy to'plami.
2. Jarniewicz, Jerzy. The use of cliché in Liverpool poetry. Folia Litteraria 18, 1987. 101-114 betlar
3. Mullaxo'jayeva, R. Yangilangan so'z. Shavkat Rahmon: Shoirlik – qismat. Шавкат Раҳмон, 2012, №4
4. Taylor, Helen Louise, Adrian Henri and the Merseybeat movement: performance, poetry, and public in the Liverpool scene of the 1960s Royal Holloway, University of London A thesis presented for the degree of Doctor of Philosophy, 2017.
5. Лебедев, Андрей Юрьевич. Творчество и стиль «Ливерпульских поэтов», - Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова № 3, 2016. 84-87 betlar.
6. www.wikipedia.org/wiki/The_Sacred_Mushroom. Murojaat vaqti 15.08.2025
7. https://www.poemhunter.com/adrian-henri/ebooks/?ebook=0&filename=adrian_henri_2012_3.pdf